



TURK TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISH METODLARI

Ruhshona Normamatova

*Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti Sharq tillari fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: Turk tili yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Email: ruhshonasamchti2024@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada turk tilini chet tili sifatida o'qitishda qo'llaniladigan metodlar, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, samarali o'qitish omillari ilmiy jihatdan yoritiladi. Ushbu maqola o'quvchilarni chet tilini o'rganishga jalb qilishda filologlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Turk tili, chet tili, metod, kommunikativ metod, grammatik-tarjima metodi, audiolingval metod, interaktiv metod, innovatsion texnologiyalar, til o'qitish, madaniyat, gamifikatsiya.

Kirish: Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Dunyo miqyosida ingliz, nemis, rus, arab va turk tillarini o'rganishga qiziqish yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, Turkiya Respublikasi so'nggi o'n yilliklarda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va turizm sohalarida jadal rivojlangani tufayli turk tili xalqaro miqyosda keng qo'llanila boshladi [1]. Turk tilini chet tili sifatida o'qitish masalasi nafaqat Turkiyada, balki Markaziy Osiyo mamlakatlari, Yevropa davlatlari va Amerika qit'asida ham dolzarb bo'lib bormoqda [4]. Chunki bu tilni bilish nafaqat ta'lim, balki savdo-sotiq, madaniy almashinuv, diplomatik aloqalar va turizm sohalarida ham keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Turk tilini chet tili sifatida o'qitishning maqsad va vazifalari.

Til o'qitishda asosiy maqsad — tinglab tushunish, o'qish, yozish va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdir [2]. Bu to'rt ko'nikma uyg'un rivojlanmasa, tilni puxta egallash mushkul bo'ladi. Shu sababli, o'qituvchi dars jarayonida barcha ko'nikmalarni bir-biri bilan uzviy bog'liq holda o'rgatishi kerak. Shuningdek, turk tilini o'rganayotgan talabalarga faqat til tizimini emas, balki turk xalqining tarixi, madaniyati, qadriyatlari, milliy an'analari va turmush tarzini ham singdirish muhimdir [4]. Chunki madaniyat va til bir-biridan ajralmas hodisalardir. Masalan, turk tilida uchraydigan "misafirperverlik" (mehmondo'stlik), "bayramlashma" (bayramda bir-birini tabriklash) kabi tushunchalarni faqat lug'aviy tarjima bilan tushunib bo'lmaydi. Bu so'zlarni to'g'ri anglash uchun turk xalqining hayot tarzi bilan tanishish zarur [1].

O'qitish metodlari.

Grammatik-tarjima metodi. Grammatik-tarjima usuli tarixan eng qadimiy metodlardan biridir [3]. Bu metodda dars jarayoni asosan matn tarjimasi va grammatik qoidalarni o'rgatishga asoslanadi. Talabalar so'z yodlaydi, jummalarni tarjima qiladi va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qoidalarni yozma tarzda qo‘llaydi. Afzalligi: Talabalar grammatik bilimlarni mustahkam egallaydi. Tilning tuzilishi chuqur o‘rganiladi. Kamchiligi: Og‘zaki nutq ko‘nikmalari sust rivojlanadi. Talabalar ko‘pincha grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirsa ham, tabiiy muloqotda qiynaladi [2]. Shunga qaramay, bu metod ko‘pincha boshlang‘ich bosqichlarda samarali bo‘lib, tilning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kommunikativ metod. Kommunikativ metod hozirgi davrda eng samarali usullardan biri sifatida tan olingan [5]. Bu metodda dars jarayoni talabaning amaliy muloqotga kirishishi va o‘z fikrini erkin ifoda etishiga qaratiladi. Mashg‘ulotlarda suhbatlar, rolli o‘yinlar, muhokamalar, intervyu va real hayotiy vaziyatlarga oid mashqlar qo‘llaniladi. Masalan, talabalar “Restoranda ovqat buyurtma berish”, “Do‘konda xarid qilish” yoki “Sayohatga chiqish” kabi vaziyatlarni teatrlashtirilgan shaklda bajarishlari mumkin [2]. Bu ularda tilni nafaqat nazariy, balki amaliy qo‘llash malakasini ham rivojlantiradi.

Audiolingval metod. Audiolingval metod asosan tinglash va takrorlash orqali o‘rganishga asoslanadi [3]. Bu metod XX asrning o‘rtalarida Amerika va Yevropa mamlakatlarida keng qo‘llanilgan. Unda talabalar qisqa jummalarni, dialoglarni ko‘p marotaba takrorlash orqali avtomatik nutqni shakllantiradilar. Afzalligi: Talaffuz va intonatsiya yaxshi shakllanadi. Til refleks sifatida o‘zlashtiriladi. Kamchiligi: Grammatik bilimlar chuqur o‘zlashtirilmaydi. Talaba yangi vaziyatlarda erkin gapira olmay qolishi mumkin [5].

Innovatsion va interaktiv metodlar. Bugungi kunda texnologiyalar taraqqiyoti til o‘qitishda ham katta imkoniyatlar yaratmoqda. Multimedia vositalari, onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida talabalar o‘quv jarayonida faol qatnashadilar [4].

Masalan, Duolingo, Memrise, Zoom, Google Classroom kabi platformalar turk tilini mustaqil o‘rganishda keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek, YouTube’dagi turk tili darslari, podkastlar, turk seriallari va qo‘shiqlari ham o‘quvchilarda tilni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi [2]. Innovatsion metodlarning yana bir afzalligi shundaki, ular talabalarda qiziqish uyg‘otadi, o‘z-o‘zini nazorat qilish imkonini beradi va mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiradi [5].

Samarali o‘qitishning muhim omillari. Turk tilini chet tili sifatida samarali o‘rgatish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi: Talaba markazli yondashuv – dars jarayonida o‘qituvchi emas, balki talaba faol bo‘lishi kerak [3].

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) – o‘yinlar orqali tilni qiziqarli o‘rgatish. Masalan, viktorinalar, so‘z topish o‘yinlari, raqobat asosidagi mashqlar [4]. Madaniyatni o‘rganish – til bilan birga turk xalqining urf-odatlarini, bayramlari, milliy taomlari va hayot tarzi haqida bilim berish [1]. To‘rt ko‘nikmani uyg‘un rivojlantirish – tinglash, gapirish, yozish va o‘qishni birgalikda rivojlantirish [2]. Motivatsiya – talabada o‘qishga qiziqish uyg‘otish, uni rag‘batlantirish [5].

Turk tilini chet tili sifatida o‘qitishda turli metodlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Grammatik-tarjima metodi nazariy bilimlarni





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mustahkamlasa, kommunikativ va audiolingval metodlar amaliy muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Innovatsion va interaktiv metodlar esa tilni qiziqarli va samarali tarzda o'rganishga yordam beradi. Eng muhimi, o'qituvchi birgina metod bilan cheklanib qolmasdan, an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtirib qo'llashi kerak. Chunki til o'rgatish jarayoni murakkab bo'lib, unda har bir talabaga individual yondashuv zarur. Turk tilini o'rganish nafaqat ta'limiy, balki madaniy ijtimoiy ahamiyatga ega. Zero, til orqali xalqlar o'zaro yaqinlashadi, madaniyatlar boyiydi va do'stona aloqalar mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksan, Doğan. Her Yönüyle Dil: Ana Çizgileriyle Dilbilim. Ankara, 2007.
2. Demirel, Özcan. Yabancı Dil Öğretim Yöntemleri. Ankara, 2015.
3. Celce-Murcia, Marianne. Teaching English as a Second or Foreign Language. Boston, 2014.
4. İnce, Barış. Türkçenin Yabancı Dil Olarak Öğretimi. İstanbul, 2018.
5. Richards, Jack C. & Rodgers, Theodore S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge, 2014.

